

## BO‘LAJAK JURNALISTLARNING YOZMA DISKURSIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MASHQLARDAN FOYDALANISH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10198568>

**Yuldashova Nilufar Muxitdinovna**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, “Xorijiy tillar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jurnalistika yo‘nalishi talabalarining yozma diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishda samara beradigan mashqlar tizimi taklif qilinadi. Bunday mashqlar talabalarni bajarilishi kutilayotgan vazifaga yaxshi tayyorlash va keyingi asosiy bosqichda foydalanishlari mumkin bo‘lgan ma‘lumot bilan ta‘minlaydi. Shuningdek bunday mashqlar talabalarning mavzuga qiziqishini orttiradi va keyingi bosqichda vazifani bajarishdagi zaruriyatini tushunish imkoniyatini beradi.*

***Kalit so‘zlar:** TBLT, reseptiv mashqlar, produktiv mashqlar, refleksiv mashqlar, ijodiy mashqlar, vazifa tsikli.*

### USE OF EXERCISES IN IMPROVING WRITTEN DISCURSIVE COMPETENCE OF FUTURE JOURNALISTS

***Abstract.** This article proposes a system of exercises effective in improving the written discursive competence of journalism students. Such exercises prepare students well for the task at hand and provide them with information they can use at the next major stage. Also, such exercises increase students' interest in the subject and provide an opportunity to understand the necessity of performing the task at the next stage.*

***Keywords:** TBLT, receptive exercises, productive exercises, reflexive exercises, creative exercises, task cycle.*

Chet tilini o‘qitishda asosiy narsa turli xil qoidalarni yodlash orqali til haqida nazariy bilimlarni egallash emas, yoki bir xil narsani takrorlash orqali ma‘lum nutq qobiliyatlarini shakllantirishda emas, balki talabalarning boshqalarni tushunishi va o‘z fikrlarini chet tilida ifoda eta olish qobiliyatini rivojlantirishdir. Buning uchun chet tili darslarida aynan shunday qobiliyatni rivojlantiradigan mashqlarga asosiy vaqt va e‘tibor qaratilishi kerak.

Mashqlar tizimini tasniflashda bir qancha yondashuvlar mavjud; psixologik (reseptiv, reproduktiv va produktiv mashqlar – G.Palmer), lingvopsixologik (til va nutq mashqlari – I.A.Gruzinskaya, I.V.Raxmanov) va didaktik (informativ, tayyorlovchi va nutqiy – I.F.Komkov), Ye.I.Passov barcha mashqlarni shartli nutqiy va nutqiy mashqlarga ajratadi.

M.S.Ilin o‘z tadqiqotida mashqlarni ikki turga, ya’ni til va nutq mashqlariga ajratadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar avval tilga oid mashqlarni bajarib, keyin ko‘nikma hosil bo‘lganda nutqda amaliyotda qo‘llashadi. Mashqlarning ikki turga bo‘linishini bir qancha olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin. A.A.Mirollyubov mashqlarni tayyorlovchi va nutqiy mashqlarga, E.P.Shubin analitik va sintetik, I.D.Salitra birlamchi va nutqiy, V.L.Salkin tayyorlovchi va kommunikativ, A.D.Klimentinko tayyorlovchi va shaxsiy-nutqiy mashqlar tipologiyasiga ajratgan.

Professor I.V.Raxmanov barcha mashqlarni til va nutq mashqlariga ajratadi. Ayrim metodistlar o‘z asarlarida ikkala termin orasida “nutqqacha bo‘lgan mashqlar” nomini ham qo‘llashadi. V.A.Buxbinder mashqlar haqida tadqiqot olib borib, ularni informatsion, operatsion va motivatsion mashqlarga ajratgan. O‘zbekistonlik chet tili metodistlari bajargan ilmiy tadqiqotlarida chet til mashqlar sistemasini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlarga bo‘lishgan.

Talabalar kommunikativ kompetensiyasini oshirishda, ularni erkin muloqotga o‘rgatishda o‘rganilayotgan tilning shakl va ko‘rinishini bilish nutqiy faoliyatni olib borish uchun yetarli emas. Shu sabab, kommunikativ metodlarning rivojlanishi va an’anaviy metodlar ahamiyatining susayishi natijasida ushbu turdagi mashqlar tasnifi o‘z dolzarbligini yo‘qota boshladi.

B.Samatovanning fikriga qo‘shilgan holda yana shuni aytmochimizki, yuqorida keltirib o‘tilgan mashqlar tipologiyasi PPP (Presentation, Practice and Production)ni ifodalaydi, ya’ni til materiali o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi (bilim shakllanadi), shakllangan bilim yuqorida keltirib o‘tilgan mashq turlari yordamida ko‘nikma rivojlantiriladi va keyingi bosqichda bilim va ko‘nikma kontekstda qo‘llanilib malaka takomillashtiriladi.

Biz tadqiqotimiz davomida o‘rganib borayotgan TBLT yondashuvi tamoyillariga yuqoridagi mashqlar tizimi mos kelmaydi va biz TBLTni o‘rganib tadqiqotlar olib borgan olimlar tomonidan berilgan mashqlar tipologiyasini ko‘rib chiqishni lozim topdik.

Birinchi navbatda vazifa turlarining qisqacha tasnifini (mashqlar tizimi)ni quyidagi jadvalda keltirib o‘tamiz.

### Vazifa Turlari

Bangalor loyihasi	Pattisonning vazifalar tipologiyasi	Richardsning pedagogik vazifalar tipologiyasi
<i>axborot bo'shlig'i (information gap), sabab bo'shlig'i (reasoning gap) va fikr bo'shlig'i (opinion gap).</i>	savol va javob; dialog va sahna ko'rinishi; moslashtirish vazifalari; aloqa strategiyalari; rasm va rasmi hikoyalar; muammo va bosh qotirmalar; muhokama va qarorlar.	jigso (Jigsaw) vazifalar; axborot bo'shlig'i (almashish) vazifasi; muammoni hal qilish vazifasi; qaror qabul qilish vazifasi; fikr almashish vazifasi

Rod Ellis vazifalarni tasniflashning yanada tizimli usulini misollar keltirib bergan.

### Rod Ellisning vazifalar tasnifi

	<i>Til materialiga urg'u bermaydigan – tilning umumiy namunalarini o'z ichiga olgan vazifalar.</i>	<i>Til materialiga urg'u beradigan – maxsus, oldindan tanlab olingan til birliklarini ishlatish uchun mo'ljallangan vazifalar</i>
<b>Ma'lumot olishga asoslangan</b> – ishlab chiqarishni talab qilmaydigan, shuningdek, taqiqlamaydigan vazifalar.	Samolyot modelini qanday yig'ish haqida yozma ko'rsatmalar. O'quvchilar ko'rsatmalarni o'qib modelni yig'ishlari talab qilinadi.	Hayvonot bog'ida hayvonlarning joylashishini og'zaki tavsiflash. Ko'rsatmalar o'quvchilar birlik va ko'plik otlarini farqlash uchun mo'ljallangan. O'rganuvchilar hayvonlarning rasmlarini to'g'ri joylarga joylashtirishadi.
<b>Ma'lumot berishga asoslangan</b> – natijaga erishish uchun gapirish yoki yozishni talab qiladigan vazifalar.	O'quvchilar sudyalarda sifatida harakat qilib ularga berilgan ma'lumotlardan kelib chiqib jinoyat sodir etganlarga nima jazo berishni muhokama qilib qaror qabul qilishlari kerak.	Cho'ntakdagi narsalar vazifasi. Til o'rganuvchilarga biron kimsaning cho'ntagidagi narsalar ko'rsatilib ulardan bu qanday inson bo'lishligi mumkinligini taxmin qilish so'raladi.

Ma'lumot olishga va ma'lumot berishga asoslangan vazifalar o'rtasidagi farq bir qator nazariy va amaliy sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Ma'lumot olishga asoslangan vazifalar tildan foydalanishga yetarlicha manbaga ega bo'lmagan boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchilar uchun kerak. Bunday vazifalar


o‘rganuvchilarni ular uchun tushunarli bo‘lgan ma’lumot bilan ta’minlab til o‘rganishlarini jadallashtiradi. Bunday vazifalar an’anaviy yondashuvlarga o‘rganib qolgan o‘quvchilarga vazifaga asoslangan til o‘qitishni joriy qilishda ham qo‘l keladi. Ma’lumot berishga asoslangan vazifalar esa yuqori darajadagi malakani takomillashtirish uchun kerak. Bunday vazifalar o‘rganuvchilar uchun ma’no muzokarasi (negotiation of meaning) (va, shuningdek, shaklni ham) uchun ko‘proq imkoniyat beradi.

Til materialiga urg‘u beriladigan vazifalardan TBLTda foydalanish haqida tilshunos olimlar orasida turli xil qarshi fikrlar bo‘lsa-da, Rod Ellis bunday vazifalardan foydalanishning samarasi borligi haqida yozadi. Ba’zi til hodisalari masalan, ega va kesimning moslashishi, shart ergash gapli qo‘shma gaplar kabi murakkab grammatik shakllar hattoki tilni rivojlangan darajasida (advanced level) o‘rganish davomida ham o‘rganuvchilarga muammo tug‘dirishi mumkin. Biroq, Rod Ellis butunlay til materialiga urg‘u beriladigan vazifalardan tashkil topgan vazifaga asoslangan dasturni nazarda tutmaydi, aksincha, o‘quvchilar aniq lingvistik shakllardan foydalanishga urinayotganlari, ammo buni to‘g‘ri va aniq bajara olmasliklari aniq bo‘lganda ularni tanlab ishlatishni aytadi.

Ellis til materialiga urg‘u beriladigan vazifalarni ongni oshiruvchi vazifalar (consciousness-raising task) deb ataydi. Bu lingvistik shaklni (odatda grammatik yoki pragmatik) vazifa mavzusiga aylantiradi va o‘quvchilarga qoidani tushunishga yordam berishga qaratiladi. Bundan tashqari, ongni oshirish vazifalari, agar o‘quvchilar vazifani bajarish davomida paydo bo‘ladigan lingvistik muammolarni hal qilishda birgalikda harakat qilsalar, bu ularga muloqot qilish imkoniyatini beradi. Shunday ekan ularni “vazifa” deb atash mumkin. Demak, boshqa mavzular singari tilning o‘zini ham suhbat mavzusiga aylantirish mumkin.

Biz Rod Ellis tomonidan taqdim etilgan mashqlar tizimidan foydalanib va Djejn Villis tomonidan ishlab chiqilgan vazifaga asoslangan til o‘qitish modelini hisobga olgan holda quyidagi mashqlar tizimini taklif etamiz:

- reseptiv (ma’lumot olishga asoslangan);
- produktiv (ma’lumot berishga asoslangan);
- reflektiv (mulohaza yuritishga asoslangan);
- ijodiy (yangi kutilmagan vaziyatlarda bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash).



### Djeyn Villis modeli

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak chet tilini o'qitishda yuqorida berilgan mashqlar tizimidan foydalanish talabalarning yozma diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishda samara beradi, sababi chet tilini o'rganish jarayonida talabalar mulohaza yuritadi, tanqidiy tahlil va sintez qiladi va ular tashabbus ko'rsatishi, qaror qabul qilishi va natijalar uchun mas'uliyatni o'z bo'ynilariga olishi uchun imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, talabalar intellektual, ijodiy, hissiy, ijtimoiy, yoki jismoniy shug'ullanish, xatolar va muvaffaqiyatlardan o'rganish imkoniyatlariga ham ega bo'ladilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Axmedova M.X. Tipologiya uprajneniy dlya razvitiya rechi na nerodnom yazike // Molodoy uchëniy, Mejdunarodniy nauchniy jurnal. – Kazan', 2016. – №1(105). – S.776. 687-689.
2. Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning ko'nikma va malakalarini baholash hususiyatlari. Dissertasiya 80- bet
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi; chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent; O'qituvchi, 2012. – 14-bet

4. Samatova B.R. Ingliz tilini o‘qitishda nofilologik yo‘nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo‘nalishi misolida) dissertasiya. Toshkent 2020, 113-114 bet
5. Prabhu, N. S. (1987). *Second Language Pedagogy*. Oxford: Oxford University Press.: 46–7)
6. Pattison, P. 1987. *Developing Communication Skills*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Richards, J. C. 2001. *Curriculum Development in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press. (page 162)
8. Rod Ellis. Position paper: Moving task-based language teaching forward. *Lang. Teach.* (2017), 50.4, 507–526 Cambridge University press 2017, page 509-510 <https://www.cambridge.org/core/terms>.
9. Muratova, N. (2022). Mass Media in State Strategic Programs of Information Society Development in Different Countries. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(4), 56-61.